



Traditional types of crowdfunding and donation-based crowdfunding in Islamic law

Aminjon KALANDAROV¹

Tashkent State University of Law

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2024

Received in revised form

15 September 2024

Accepted 25 September 2024

Available online

15 October 2024

Keywords:

crowdfunding,
Islamic crowdfunding,
donation-based
crowdfunding,
interest-free financing.

ABSTRACT

The emergence of innovative digital financial technologies has transformed donation-based crowdfunding into an effective tool that complements traditional fundraising mechanisms. In recent years, crowdfunding has garnered worldwide attention as an alternative financing method for business initiatives and social projects. Despite the promising growth of projects facilitated through donation-based crowdfunding platforms, there remains a lack of a clear legal framework governing their operations, particularly in the case of Islamic donation-based crowdfunding. This article examines traditional forms of crowdfunding and explores the legal challenges of managing Islamic charitable crowdfunding activities.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss10/S-pp453-459>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

An'anaviy kraudfanding turlari va islom huquqida xayriyaga asoslangan kraudfanding

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

kraudfanding,
islomiy kraudfanding,
xayriya asosidagi
kraudfanding,
foizsiz moliyalashtirish.

Innovatsion raqamli moliyaviy texnologiyalarning paydo bo'lishi xayriya asosidagi kraudfandingni an'anaviy mablag' yig'ish mexanizmlarini to'ldiruvchi usul sifatida samarali vositaga aylantirdi. Kraudfanding so'nggi yillarda biznes tashabbuslari yoki ijtimoiy loyihalar uchun an'anaviy mablag' yig'ish usullariga alternativ moliyalashtirish mexanizmi sifatida dunyo miqyosida e'tiborni qozondi. Xayriya asosidagi kraudfanding platformalari orqali amalga oshirilayotgan loyihalar istiqbolli o'sishni ko'rsatayotgan bo'lsa-da, ayniqsa, Islomiy xayriya kraudfandingi uchun uning faoliyatini tartibga

¹ Lecturer, Department of Business Law, Tashkent State University of Law

soluvchi aniq huquqiy asos mavjud emas. Ushbu maqola an'anaviy kraudfanding turlari va Islomiy xayriya kraudfandingi faoliyatini boshqarishdagi huquqiy masalalar haqida ma'lumot beradi.

Традиционные виды краудфандинга и краудфандинг на основе пожертвований в исламском праве

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

краудфандинг,
исламский краудфандинг,
краудфандинг на
благотворительной
основе,
беспроцентное
финансирование.

Появление инновационных цифровых финансовых технологий превратило благотворительный краудфандинг в эффективный инструмент, дополняющий традиционные механизмы сбора средств. В последние годы краудфандинг привлек внимание во всем мире как альтернативный способ финансирования бизнес-инициатив и социальных проектов. Несмотря на перспективный рост благотворительных проектов, реализуемых через краудфандинговые платформы, для исламского благотворительного краудфандинга все еще отсутствует четкая правовая база, регулирующая его деятельность. В данной статье рассматриваются правовые аспекты управления традиционными формами краудфандинга, а также особенности регулирования исламского благотворительного краудфандинга.

Kraudfanding bugungi kunda biznes tashabbuslari yoki ijtimoiy loyihalar uchun an'anaviy mablag' yig'ish usullariga alternativ moliyalashtirish mexanizmi sifatida dunyo bo'ylab e'tiborni tortdi. G'arb iqtisodiyotlarida kraudfanding global kapital bozorlarida yangilik emas. Uning ildizlari 1700-yillarga borib taqaladi, o'shanda Irlandiyalik yozuvchi Jonatan Svift Dublinda kambag'al, lekin kreditga layoqatli odamlarga kredit berish maqsadida Irlandiya Kredit Fondini tashkil qilgan edi. 2022-yilda global kraudfanding bozori hajmi 1,67 milliard AQSh dollariga baholangan bo'lib, 2023-yildan 2030-yilgacha yillik o'rtacha o'sish sur'ati (CAGR) 16,7% bo'lishi kutilmoqda [1].

Facebook, Twitter, Reddit, Instagram va LinkedIn kabi ijtimoiy media platformalari orqali raqamlashtirishning rivojlanishi kraudfanding faoliyatini sezilarli darajada kengaytirmoqda va ular bozor o'sishini harakatga keltiruvchi muhim omillar sifatida e'tirof etilmoqda [2]. Raqamli texnologiyalardan foydalanib, kraudfanding platformalari mablag' yig'ilishining ochiqligi haqida ma'lumot taqdim etishi mumkin, bu esa ishtirokchilarga yig'ilgan mablag'larni bir vaqtda kuzatib borish imkonini beradi. Ushbu xususiyat axborotning oshkorligi va shaffofligini talab qiluvchi foydalanuvchilarni o'ziga jalb qiladi.

Kraudfanding har qanday biznes uchun banklar orqali o'tmasdan kapitalga kirish imkonini beradi. Kapitalga kirish uchun bir nechta shartlar talab qilinadi, ulardan biri garov sifatida foydalanish mumkin bo'lgan aktivlarga ega bo'lishdir. Barcha biznes vakillarida bunday aktivlar bo'lmasligi yoki ular garov yoki kafolat sifatida banklar tomonidan qabul qilinmasligi mumkin, masalan, startap kompaniyalarda bo'lgani kabi. Kraudfanding orqali kompaniyalar yoki tadbirkorlar kraudfanding platformasi a'zolari

yordamida kapitalga kirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Kraudfanding tizimi bu turli tomonlar o'rtasidagi hamkorlik tushunchasi asosida amalga oshiriladi. Shu bilan birga, bu holatda so'z kraudfanding orqali hamkorlik haqida ketadi.

Kraudfanding munosabatlarida ishtirok etuvchi subyektlar loyiha taashabbuskori, kraudfanding platformasi operatori va loyihani moliyalashtiruvchi investorlar hisoblanadi. N.V.Alekseyevning ta'kidlashicha, kraudfanding ishtirokchilari (tomonlari) mablag' oluvchi (tashabbuskor/loyiha muallifi) va sarmoya kirituvchi — investor hisoblanadi, agar moliyalashtirish beg'araz amalga oshirilsa, sarmoya kirituvchi donor deb ataladi [3]. E.Arhipovning fikriga ko'ra, kraudfanding munosabatlarining ishtirokchilari mablag' oluvchi – bu moliyaviy mablag'larni qabul qiluvchi shaxs va donor – moliyalashtirish oluvchiga mablag' beruvchi shaxs, ya'ni moliyalashtirishni amalga oshiruvchi tomondur [4]. A.O. Klinovning nuqtai nazariga ko'ra, mablag' oluvchi va investor bilan bir qatorda vositachini ham ajratib ko'rsatish lozim, u moliyaviy platforma operatori bo'lib, aynan shu vositachi orqali investor tashabbuskorning loyiha uchun moliyaviy yordamga muhtoj ekanligini bilib oladi [5].

Loyiha muallifi (tashabbuskori) kraudfanding platformasi orqali moliyalashtirish uchun loyiha yaratuvchi va taklif etuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs hisoblanadi. Muallifning huquqiy maqomi platforma bilan tuzilgan shartnoma munosabatlari va loyiha haqida ishonchli ma'lumotlarni taqdim etish majburiyatlari, shuningdek investorlar oldidagi majburiyatlarni bajarish majburiyatlari bilan tartibga solinadi.

Investorlar (qo'llab-quvvatlovchilar) - loyihani qo'llab-quvvatlash uchun moliyaviy mablag'lar qo'shadigan jismoniy yoki yuridik shaxslar. Investorlar ham qaytariladigan asosda (kraudfanding turiga qarab) ham, bepul asosda ham (masalan, xayriya shaklida) harakat qilishlari mumkin. Ularning huquqiy maqomi iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari, shuningdek, platforma bilan tuzilgan shartnoma shartlari bilan belgilanadi.

Kraudfanding platformasi operatori – bu loyiha mualliflari va investorlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik uchun kraudfanding platformasida xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxs. Platforma operatori mablag' yig'ish jarayonini tashkil etish va monitoring qilish, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan huquqiy normalar va talablarga rioya etilishi uchun javobgardir. Operatorning huquqiy qobiliyati moliyaviy faoliyat, ma'lumotlarni himoya qilish va foydalanuvchilar huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq qonunchilikka rioya qilishni talab etadi. Platforma operatori ishtirokchilarga texnik, huquqiy va axborot xizmatlarini ko'rsatish majburiyatiga ega.

Boshqa moliyaviy mahsulotlar yoki xizmatlar singari, kraudfanding ham an'anaviy va Islomiy modellariga bo'linishi mumkin. An'anaviy kraudfanding odatda to'rt asosiy turga bo'linadi:

Mukofotga asoslangan kraudfanding: Foydalanuvchilar ma'lum bir loyiha uchun hissa qo'shadi va buning evaziga mukofot oladi. Masalan, loyiha mahsulotining dastlabki nusxasi yoki maxsus sovg'alar.

Aksiyalarga asoslangan kraudfanding: Investorlar loyihaga hissa qo'shadi va evaziga loyiha aksiyalari yoki ulushlariga ega bo'ladi. Bu usul kichik bizneslar va startaplar uchun mashhurdir.

Kreditga asoslangan kraudfanding (Peer-to-Peer): Foydalanuvchilar loyihaga kredit beradi va foizli daromad oladi. Bu, odatda, an'anaviy moliyaviy xizmatlar bilan raqobatlashadigan modeldir.

Xayriya asoslangan kraudfanding: Loyihaga xayriya qilingan mablag'lar evaziga hech qanday moliyaviy yoki moddiy mukofot talab qilinmaydi.

An'anaviy kraudfanding turlari moliyaviy bozorlar va ijtimoiy loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun turli xil model va mexanizmlarni taklif qiladi. Ularning faoliyati ko'p hollarda milliy qonunchilik va tartibga solish talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

An'anaviy kraudfanding modelidan farqli o'laroq, Islomiy kraudfanding Shariat tamoyillariga rioya qilishi va ularga muvofiq bo'lishi shart. Bu, jumladan, kraudfanding loyihalarining maqsadlari halol bo'lishi va ribo (foiz asosidagi daromad), maysir (qimor), g'arar (noaniqlik) kabi man etilgan faoliyatlardan va boshqa harom ishlaridan xoli bo'lishini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, Islomiy xayriya asosidagi kraudfanding odatda zakot, vaqf va sadaqa kabi Islomiy ijtimoiy moliyaviy fondlar bilan bog'liq kraudfanding faoliyatini o'z ichiga oladi. O'z mohiyatiga ko'ra, kraudfanding Islomiy ta'limotlarga muvofiq keladi [6].

Shuningdek, halollik, hisobdorlik, o'zaro ishonch va mas'uliyat, kraudfanding va Islomiy moliyalashtirishda eng yuqori e'tiborga ega tamoyillar hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, kraudfanding falsafasi Shariat ruhiga mos keladi, chunki u boylikni taqsimlashni rag'batlantiradi, shaffoflikni va ijtimoiy adolat tamoyillarini qo'llab-quvvatlaydi.

Garchi kraudfanding an'anaviy va Islomiy modellarda o'xshash bo'lsa-da, ularning rivojlanishi va huquqiy tartibga solinishida sezilarli farqlar mavjud. Global Islomiy kraudfanding sektori hali rivojlanayotgan bozor hisoblanadi va 2022-yilga kelib uning bozor hajmi an'anaviy kraudfandingga nisbatan taxminan 1% kamroq, ya'ni qariyb 100 million AQSh dollariga baholangan [7].

AQSh, Buyuk Britaniya, Xitoy, Singapur va boshqa davlatlar kraudfanding faoliyatini tartibga solish uchun o'z regulyator rejimlariga zaruriy o'zgartirishlar kiritgan. Solishtirish uchun, hozirgi kunga qadar juda kam Islomiy moliyaviy standartlar belgilovchi tashkilotlar Islomiy xayriya kraudfandingi uchun maxsus Shariatga mos modelni ishlab chiqdi. Islomiy moliyaviy institutlar uchun Hisob va Audit Tashkiloti (AAOIFI) tomonidan kiberxavfsizlik va oshkoralik talablari kabi sohalarni qamrab oluvchi "Islomiy kraudfanding boshqaruvi" nomli batafsil huquqiy asos ishlab chiqilgan [8].

An'anaviy va Islomiy kraudfandingning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini tushuntirish uchun bir nechta aniq misollarni keltirish mumkin. Masalan, an'anaviy kraudfandingda Kickstarter platformasi orqali 2023-yilga qadar 6 milliard dollardan ortiq mablag' yig'ilgan bo'lib, bu ko'plab texnologik startaplar, jumladan, Oculus Rift kabi innovatsion qurilmalarning rivojlanishiga xizmat qilgan. Ushbu loyiha muvaffaqiyatli amalga oshib, keyinchalik Facebook tomonidan 2 milliard dollarga sotib olingan. Bu an'anaviy kraudfandingning iqtisodiy innovatsiyalarni rivojlantirishdagi salohiyatini namoyish etadi [9].

Boshqa tomondan, Islomiy kraudfanding platformalari, masalan, Indoneziyadagi Ethis, arzon uy-joy loyihalariga investitsiyalarni jalb qilish orqali kam ta'minlangan oilalarga yordam ko'rsatmoqda [10]. Ushbu loyiha Shariat tamoyillariga muvofiq ravishda amalga oshirilgan va ijtimoiy adolatni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Malayziyada Global Sadaqah platformasi zakot va xayriya mablag'larini yig'ish orqali ta'lim, tabiiy ofatlardan zarar ko'rgan hududlarni tiklash va kam ta'minlangan oilalarga yordam berish kabi ijtimoiy loyihalarni qo'llab-quvvatlamokda [11].

Ijtimoiy samaradorlikni yoritishda GoFundMe platformasi yaxshi misol bo'la oladi [12]. Ushbu an'anaviy kraudfanding platformasi tabiiy ofatlardan zarar ko'rgan jamoalar

uchun millionlab dollar mablag' yig'ishga muvaffaq bo'lgan. Masalan, 2020-yilda Avstraliyada yuz bergan o'rmon yong'inlari davrida mablag' to'plash orqali ko'plab odamlarning hayoti yaxshilangan. Islomiy kraudfandingda LaunchGood platformasi musulmon jamoalari uchun samarali bo'lib [13], masjidlarni ta'mirlash, ta'lim dasturlarini qo'llab-quvvatlash va qashshoqlikni kamaytirishga qaratilgan loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirdi. Pandemiya davrida LaunchGood orqali musulmon shifokorlar va ijtimoiy xodimlarni qo'llab-quvvatlash uchun bir nechta global xayriya kompaniyalari o'tkazilgan.

Kraudfanding global miqyosda moliyalashtirishning alternativ manbai sifatida keng tarqalishidan oldin, musulmon jamiyatlari Islomiy ijtimoiy moliyaviy fondlar orqali kraudfanding faoliyatida faol ishtirok etib kelgan. Tarixan Islomiy davlatlar zakot (majburiy xayriya) va vaqf (xayriya mulki) institutlarini boylikni yaratish va taqsimlash mexanizmi sifatida, ayniqsa, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish va farovonlikni ta'minlash maqsadida tashkil qilgan.

An'anaviy Islomiy ijtimoiy vositalar tarkibiga zakot, sadaqa, vaqf kabi xayriya amaliyotlari kirgan. Olimlarning ta'kidlashicha, xayriya asosidagi kraudfanding mukofotga asoslangan, aksiyadorlikka asoslangan yoki kreditga asoslangan kraudfanding turlariga qaraganda ko'proq an'anaviy hisoblanadi va kengroq qabul qilinadi [14].

Texnologiyaning rivojlanishi bilan kraudfanding o'zining dastlabki ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlaridan tashqariga chiqib, innovatsiyalar, tadbirkorlik g'oyalari va loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun kapital yig'ish vositasiga aylandi. Kraudfanding bu borada dastlabki kapitalni taqdim etish, jamoatchilik orasida noyob g'oyalarni sinovdan o'tkazish va iste'molchilar bilan aloqalarni o'rnatishda muhim rol o'ynaydi.

Biroq, uning salohiyati va o'sishiga qaramay, bir qancha muammolar dolzarb masalaga aylandi [15]. Ular orasida mablag'larni suiiste'mol qilish, majburiyatlarning buzilishi, shaxsiy ma'lumotlarning yo'qolishi va soxta kompaniyalar kabi masalalar mavjud. Masalan, xayriya asosidagi kraudfanding mablag'larni boshqarishdagi shaffoflik va axloqiy majburiyatlarning yo'qligi xavfi bilan yuzlashadi. Mukofot asosidagi kraudfanding esa va'da qilingan mahsulotni yetkazib bermaslik, intellektual mulk huquqining buzilishi va noto'g'ri taqdimot muammolariga duch keladi. Aksiyadorlik asosidagi kraudfandingda qayta moliyalashtirish va qayta tashkil etish, aksiyalar narxлари, malakasiz investorlar va iqtisodiy bo'shliqlar xavfi mavjud. Kredit asosidagi kraudfanding esa bajarilmagan va'dalar xavfiga duchor bo'lishi mumkin.

Islomiy kraudfanding ham bundan mustasno emas, xususan, kraudfanding kompaniyalarida firibgarlik muammolari kuzatiladi. Islomiy moliyaviy adabiyotlarning katta qismi aksiyadorlik kraudfandingiga qaratilgan. Xayriya asosidagi kraudfanding bo'yicha esa adabiyotlar asosan bunday kraudfanding modellarini va umumiy ko'rinishlarini tahlil qilishga yo'naltirilgan bo'lib, Shariat masalalarini ko'rib chiqishni qamrab olmaydi [16]. Ushbu bo'shliq Islomiy xayriya kraudfandingiga oid potentsial Shariat masalalari bo'yicha chuqur tadqiqot olib borish zarurligini ta'kidlaydi.

Islom moliyasi 16 turdagi foizsiz biznes shartnomalarini taklif etadi, ulardan biri P2P kraudfanding uchun eng mos keladigan foydani taqsimlash shartnomasi bo'lib, u Mudaraba shartnomasi deb ataladi [17]. Mudaraba islomda ishonchli moliyalashtirish usuli hisoblanib, unda sheriklardan biri (rab-ul-maal) kapitalni ta'minlaydi, ikkinchisi esa (mudarib) ushbu kapitalni tijorat korxonasiga investitsiya qiladi. Faoliyatdan olingan foyda tomonlar o'rtasida oldindan kelishilgan nisbatga muvofiq taqsimlanadi.

Mudaraba shartnomasi ikki yoki undan ortiq sherikni o'z ichiga oladi: biri kapital kirituvchi (rab-ul-maal), ikkinchisi esa kapitalni boshqaruvchi va biznesni amalga oshirish uchun zarur malaka va tajribaga ega bo'lgan sherik (mudarib). Daromad oldindan belgilangan ulush asosida taqsimlanadi. Agar zarar yuzaga kelsa, rab-ul-maal o'z kapitalini yo'qotadi, mudarib esa loyihaga sarflagan vaqt va kuchini yo'qotadi. Ushbu shartnoma foizga asoslanmagan bo'lib, biznes yuritishning islomiy tamoyillariga to'liq mos keladi.

P2P islomiy kraudfandingning ishlash mexanizmi an'anaviy P2P kraudfandingga o'xshash. Ammo islomiy kraudfandingda qo'llaniladigan shartnomalar uni an'anaviy P2P kraudfandingdan ajratib turadi. An'anaviy P2P kraudfandingda foizga asoslangan shartnomalar ishlatilsa, P2P islomiy kraudfanding foydani taqsimlash shartnomasidan foydalanadi. Ushbu shartnoma investorlarga moliyalashtirilgan loyihalardan oldindan kelishilgan foyda ulushini olish imkoniyatini beradi. Bu shartnomaning asosiy afzalligi shundaki, investorlar o'z kapitallaridan yiliga 15% gacha daromad olishlari mumkin.

Kraudfanding bugungi kunda innovatsion va ijtimoiy loyihalar uchun moliyalashtirishning muqobil manbai sifatida keng qo'llanilmoqda. U mukofotga asoslangan, aksiyadorlik, kredit, va xayriyaga asoslangan an'anaviy turlarga bo'linadi. Islomiy kraudfanding esa Shariat tamoyillariga muvofiq amalga oshiriladi, bunda ribo, maysir va g'arar kabi man etilgan unsurlarni chetlab o'tadi. Islomiy kraudfanding xayriya faoliyatiga va ishonchga asoslangan kelishuvlarga, xususan, Mudaraba kabi shartnomalarga asoslanadi.

An'anaviy kraudfandingning global bozori yildan-yilga o'sib borayotgan bo'lsa-da, Islomiy kraudfanding sektori hali rivojlanish bosqichida. Uning asosiy farqi shundaki, loyihalarning halol bo'lishi va moliyaviy faoliyatning Shariatga mosligi ta'minlanishi shart. Xayriya asosidagi kraudfandingda shaffoflik va hisobdorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, kraudfandingning umumiy rivojlanishi mablag'larni suiiste'mol qilish, shaxsiy ma'lumotlarning buzilishi va soxta kompaniyalar kabi xavflar bilan bog'liq. Islomiy moliyaviy institutlar ushbu masalalarni tartibga solish uchun huquqiy va axloqiy asoslarni yanada rivojlantirishlari zarur.

Islomiy kraudfanding falsafasi adolat, shaffoflik va o'zaro ishonch tamoyillariga mos keladi. Kelajakda ushbu sohani kengaytirish va Shariatga mos modelni yanada rivojlantirish uchun chuqur tadqiqotlar va regulyatorlar tomonidan qo'shimcha choralar talab qilinadi. Shu sababli, kelgusidagi tadqiqotlarda Islomiy kraudfandingni yanada chuqurroq va kengroq o'rganish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Grand View Research, 'Grand View Research Crowdfunding Market Size & Share Analysis Report 2030' (2021).
2. Salido-Andres and others, 'Mapping the Field of Donation-Based Crowdfunding for Charitable Causes: Systematic Review and Conceptual Framework' [2021] VOLUNTAS: International Journal of Voluntary and Nonprofit Organizations 288.
3. Алексеев Н.В. "Краудфандинг: от реализации частной инициативы к решению общественных проблем" // Бюллетень науки и практики. 2016. № 10 (11), С. 271-277.

4. Архипов Е. "Понятие и правовая природа краудфандинга" // Актуальные проблемы предпринимательского права. Выпуск IV. Сборник статей под ред. к.ю.н. А.Е. Молотникова. Издательство «Автор», 2015.
5. Клинов А.О. "Правовое регулирование краудфандинга в России и за рубежом" // Журнал «Закон». 2018. № 2, С. 90-105.
6. Muneeza Aishath, Nur Aishah Arshad and Asma' Tajul Arifin, 'The Application of Blockchain Technology in Crowdfunding: Towards Financial Inclusion Via Technology' [2018] International Journal of Management and Applied Research 82
7. Muhammed Karakulah, 'The Potential of Islamic Crowdfunding Is Much Higher Than That of the Conventional System' (www.islamicfinancenews.com, 2022).
8. AAOIFI, Islamic Crowdfunding Governance (Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions 2021).
9. Kickstarter: Bring creative projects to life. <https://www.kickstarter.com/>
10. Ethis | Shariah-Compliant Investments & Ethical Crowdfunding Platform. <https://ethis.co/>
11. Global Sadaqah: Shariah-compliant CSR, zakat, and waqf platform. <https://www.globalsadaqah.com/>
12. GoFundMe. <https://www.gofundme.com/>
13. LaunchGood: A global crowdfunding platform for the Muslim community. <https://www.launchgood.com/>
14. Othman and others, 'Overview of Community-Based Crowdfunding in Malaysia: Legal Issues and the Way Forward' [2021] International Journal of Academic Research in Business and Social Sciences 1213.
15. Abdullah, Syahida and Umar A Oseni, 'Towards a Shari'Ah Compliant Equity-Based Crowdfunding for the Halal Industry in Malaysia' [2017] International Journal of Business and Society 223; Wahjono, Sentot Imam and Anna Marina, 'Islamic Crowdfunding: Alternative Funding Solution', 1st world Islamic Social Science Congress (Islamic Social Science Congress 2015).
16. Michelle Cumyn, Donation-Based Crowdfunding: Legal Framework for Crowdfunding and Governance of Online Platforms (Government of Canada 2022); Muhammad Amir Lutfi and Mohd Adib Ismail, 'Sadaqah-Based Crowdfunding Model for Microfinancing and Health Care' [2016] Journal of Muamalat and Islamic Finance Research 31; Othman and others (n 10).
17. Internet manba: What is Islamic crowdfunding? Ethis. <https://ethis.co/blog/islamic-crowdfunding/>